BOSHLANG'ICH SINFLARDA MORFOLOGIYA TUSHUNCHASINING MOHIYATI

Ikromova Mahbuba Vali qizi
TDPU Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti

Annontatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi islohotlar, boshlang'ich sinflarda morfologiya tushunchasining yoritilishi, so'z turkumlari qay tartibda o'rgatilishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, morfologiya, pedagogik mahorat.

Аннотация: В данной статье говорится о реформах в системе образования, уточнении понятия морфологии в начальных классах, порядке преподавания групп слов.

Ключевые слова: компетентность, морфология, педагогическое мастерство.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sifati, jumladan, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, o'quv uslubiy ta'minotini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar natijasida boshlang'ich sinflarda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish, modulli ta'lim texnologiyalarini qo'llash, o'quv materiallarini strukturalashtirish, ta'lim mazmunini ilmiy tashkil etish va fanlarni o'zlashtirishda kompetensiyadan foydalanish ta'lim samarasini yuksaltirmoqda. Darhaqiqat, mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va islohotlar, tabiiyki, ta'limda kompetentli yondashuvni talab etmoqda. Ta'limda kompetensiyaviy yondoshuv deyilganda, o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tushuniladi. Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqil, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umum-madaniy ko'nikmalarni shakllantiradi.

O'qituvchilar o'z faoliyatida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini topishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishlari va darslar davomida o'quvchilar ongiga singdirib borishlari lozim. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi,eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh kadr bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Avvalo, kompetensiya so'zi o'zini nima ekanligi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak.

Kompetensiya" so'zi tarjimada "layoqatli", "munosib bo'lmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha "competere" so'zi asosida hosil bo'lgan. "Kompetensiya" deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. O'qituvchi o'z kasbining yetuk egasi bo'lib yetishishida , darsni noodatiy tarzda tashkil etishda kompetensiya har tomonlama qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinfda ona tili darslari oddiydan murakkabga tomon o'rgatib boriladi. Bunda birgina morfologiya bo'limining o'zini oladigan bo'lsak faqatgina so'z turkumlari o'rgatiladi. Morfologiya o'zi nima?

"Morfologiya (grekcha: morfe—shakl va lagos ~ so'z, ta'limot) so'zning grammatik shakllari haqidagi ta'limotdir Tilning ushbu sathida so'z!arning lug'aviy va grammatik ma'nolariga ko'ra turkumlarga bo'linishi va grammatik kategoriyalari, so'zlarning grammatik shakJlari, ularni hosil qiluvchi vositalar o'rganiladi ".

Boshlang'ich sinflarda morfologiya, tushunchasi haqida qisqacha ma'lumot beriladi va ushbu bo'lim uchun asos yaratiladi. Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. So'zlarni so'z turkumlariga ajratish garchand 1-sinfdan boshlansada, lekin 3-sinfdan boshlab so'z turkumlariga atama berila boshlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng har bir leksik-grammatik guruh alohida o'rganiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi.

„Ot" mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1—2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi.

Sifatni o'rganish tizimi materialni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar 1- va 2-sinfda sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga qanday?, qanaqa? so'rog'ini berishga o'rganadilar; 3-sinfda sifat so'z turkumi sifatida o'rganiladi; 4-sinfda ilgari o'rganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bog'liq holda qip-qizil, yam-yashil kabi orttirma darajadagi (atama aytilmaydi) sifatlarning yozilishi o'rgatiladi. Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatlarning ma'nosiga aniqlik kiritiladi. Boshlang'ich sinflarda „Sifat" mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: I) sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-, 2-sinf); 2) sifat haqida tushuncha berish (3-sinf); 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish (4-sinf).

„Son"ni o'rganish tizimi ham son haqidagi materialni leksik va grammatik tomondan sinfdan-sinfga o'tgan sayin boyitib, murakkablashtirib borishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich ta'limda son uch yo'nalishda o'rganiladi:

1. Sonlarning talaffuzi va ma'nosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi ustida ishlash.

Son boshlang'ich sinflarda quyidagi izchillikda o'rganiladi:

— 2-sinfda nechta?, qancha? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs va narsaning sanog'ini, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lib, shaxs va narsaning tartibini bildirishi;

— 3-sinfda „Son - so'z turkumi" tushunchasi kiritiladi. O'quvchilarda son predmetning miqdorini bildirishini otga bog'lanib kelishi yordamida aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi.

— 4-sinfda sanoq va tartib sonlar, tartib sonlarning harf, rim va arab raqamlari bilan yozilishi, qo'sh undoshli sonlarning, grammatik shakllangan sonlarning (ikkov, o'ntacha, beshtadan) imlosi, sonlarning

gramm, kilogramm, metr, litr, so'm, tiyin so'zlari bilan qo'llanishi va shu so'z bilan bitta so'roqqa javob bo'lishi o'rganiladi.

„Fe'l" mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda fe'ldan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilaming aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim imloviy qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bog'liq holda hal etiladi. Fe'l ustida ishlashga tayyorgarlik savodga o'rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o'quvchilaming diqqati fe'ining leksik ma'nosiga qaratiladi; 2—3-

sinflarda fe’lni o'rganish. Bu bosqichning asosiy vazifasi „Fe’l —so'z turkumi" degan tushunchani shakllantirish, bo'lishli va bo'lishsiz fe’llarning ma’nosi va shakliga qarab farqlash ko'nikmasini hosil qilish, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-ma) ning talaffuzi va imlosini o'rgatish hisoblanadi. 4-sinfda fe’lni o ‘rganish, Bu sinfda fe’lni o'rganishning vazifalari quyidagilar:

1. Fe’ining shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, zamon qo'shimchasi bilan o'zgarishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikma hosil qilish; fe’ining leksik ma’nolari, bo'lishli va bo'lishsizligi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimni chuqurlashtirish.

2. Nutqda fe’ldan ongli foydalanish malakasini rivojlantirish. Shu maqsadda nutqda ma’nodosh va zid ma’noli fe’llardan matn bilan bog'liq holda o'z va ko'chma ma’noda ishlatilgan fe’llar bilan tanishtirib borishga qaratilgan mashqlardan foydalanish.

3. Zamon qo'shimchalarining talaffuzi va yozilishi haqidagi ko'nikmani hosil qilish.

4. Qo'shma fe’llar va ularning doim alohida yozilishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikmani hosil qilish hisoblanadi.

Boshlang'ich ta’limda faqat kishilik olmoshlari o'rganiladi. 4-sinfda kishilik olmoshlari haqidagi dastlabki umumiy tushuncha beriladi; ularning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi va imlosi o'rgatiladi. Kishilik olmoshlari bilan o'quvchilarni tanishtirishda predmetni nomlamasligi, ular faqat ko'rsatish uchun xizmat qilishi bilan tanishtiriladi. Boshlang'ich sinfda kishilik olmoshlarining ot bilan almashinib qo'llanishiga alohida to'xtab o'tilmaydi. Chunki men, sen olmoshlari hech qachon ot bilan almashinib qo'llanmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, boshlang’ich sinf o’quvchilariiga morfologiya haqida tushuncha berishda dastlab asos sifatida so’z turkumlari haqida eng soddadan murakkabga tomon tushunchalarini shakllantirib boorish lozim. O’quvchi qachonli ot nima, so’z turkumi nima, u qanday so’roqqa javob bo’ladi, qanday vazifa bajaradi shu kabi savollarga javob bera olsagina kelgusida morfologiya bo’limini o’rganishdaqiyinchiliklarga duh kelmaydi. Bunday vaziyatda pedagogdan yertuk pedagogic mahorat vaqobiliyat talab etiladi. Pedagogik mahorat har qanday vaziyatda ham o’qituvchining eng ulkan quroli bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.K.Qosimova, S.Matjonov Ona tili o’qitish metodikasi – T: Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009

2. Q. Abdullayeva, M. Ochilov, K. Nazarov, S. Fuzailov, N . Bikboyeva Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari T.: 1994.

3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi", 1992.

4. Wikipedia

5. Ziyo.uz

WORDLY KNOWLEDGE